# Baxt qomusi

“Qishloq va suv xo’jaligini energiya ta’minoti” fakultetida O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 28-yilligi munosabati bilan Konstitutsiya o’tkazish oyligida “Konstitutsiya - baxtimiz qomusi” nomli tadbir bo’lib o’tdi. Tadbirda Ichki ishlar vazirligi “Maxsus operatsiyalarni muvofiqlashtirish boshqarmasi” boshlig’i t.f.d polkovnik Axmedov Olimjon Tursunboevich va QSXET fakulteti dekani A.J.Isaqov, “ETvaEJF” kafedrasi mudiri A.S.Berdishev va yoshlar bilan ishlash bo’yicha dekan muovini A.N. Botirovlar ishtirok etishdi.Tadbirda so’zga chiqqan t.f.d polkovnik Axmedov Olimjon Tursunboevich talabalarga O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 1992 yil 8-dekabrda qabul qilingan, eng avvalo, Konstitutsiya O’zbekistonning ozodligining shahodati sifatida qadrli ekanligi. Bu yil asosiy qomusimiz qabul qilinganiga 28-yil to’ldi. Konstitutsiya lotincha so’z bo’lib “o’rnataman”, “belgilab qo’yaman” – degan mazmunni ifoda etadi. Bu qomusiy hujjatning xalqchilligi shundaki, unda milliy urf-odatlar, an’analar, e’tiqod, umuman milliy qadriyatlar himoyasi va ravnaqi aniq belgilab qo’yilganligini ta’kidlab o’tdi. Talabalar o’zlarining qiziqtirgan barcha savollariga javob olishdi.

TIQXMMI matbuot xizmati